

## ILMIY-OMMABOP MATNLAR TARJIMASINING O'ZIGA XOSLIKHLARI



<https://doi.org/10.5281/zenodo.10366262>

Muzaffar TADJIBAYEV,

NamDU o'qituvchisi, Namangan, O'zbekiston

Tel: +998913506604; Email: abdugaffor16@gmail.com

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada ilmiy-ommabop matn, uning turlari, ilmiy-ommabop matnlar tarjimasining o'ziga xosliklari, ularda uchraydigan ma'lumotlarni taqdim etish uchun foydalilaniladigan vositalar, bu vositalarni tarjima tilida ifodalash xususida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** ilmiy-ommabop matnlar, tarjima, terminlar, funksional uslublar, kognitiv ma'lumotlar, maqola, ma'ruza, stilistik figuralar.

**Аннотация.** В данной статье речь идет о научно-популярном тексте, его видах, особенностях перевода научно-популярных текстов, средствах, используемых для подачи содержащейся в них информации, выражении этих средств на переведенный язык.

**Ключевые слова:** научно-популярные тексты, перевод, термины, функциональные стили, познавательная информация, статья, лекция, стилистические фигуры.

**Abstract.** This article deals with popular science text, its types, features of the translation of popular science texts, the means used to present the information they contain, and the expression of these means into the translated language.

**Key words:** pop-science texts, translation, terms, functional styles, cognitive information, article, lecture, stylistic figures.

Hozirgi kunda yurtimiz kitob do'konlari peshtaxtalarini kuzatadigan bo'lsak nashr etilayotgan badiiy tarjima kitoblarning salmoqli qismi o'tmishda tarjima qilingani va qayta nashr etilayotgani, aksincha ilmiy-ommabop nashrlar ruknidagi kitoblarning deyarli hammasi yangi tarjima qilingan asarlar ekaniga guvoh bo'lish mumkin. Buning sababini ilmiy uslub turkumiga kiruvchi nashrlarning, shu jumladan ilmiy-ommabop asarlarning ma'nан tezroq eskirishiga bog'lash ham mumkin. Lekin masalaning asl sababi uzoq vaqt asosiy pragmatik vazifasi jamiyatning barcha qatlamlari orasida ilm-fan targ'iboti bo'lgan ilmiy-ommabop matnlarning tarjimasiga bo'lgan sust e'tibordir! Shu holatning o'ziyoq jamiyatdagi ilmiy-ommabop matnlar tarjimasi va ular ilmiy o'r ganishga bo'lgan katta zaruratni ko'rsatib beradi.

An'anaviy amaliy stilistikada ilmiy-ommabop uslub ilmiy uslubning taguslubi hisoblanadi. Ammo ilmiy uslubning subkategoriyalari soni va o'ziga xos jihatlari bir biridan juda farq qiladi. Masalan, ilmiy uslub doirasida M. N. Kojina uchta asosiy kichik uslubni ajratib ko'rsatadi: haqiqiy-ilmiy, ilmiy-o'quv va ilmiy-ommabop [1]. D.Ye.Rozental esa ularni ilmiy-ommabop, ilmiy ish uslubi, ilmiy publitsistik, ilmiy-texnikaviy, ilmiy-o'quv kabi taguslublarga bo'ladi [2].

L. K. Graudina muharrirligida oliy o'quv yurtlari uchun nashr etilgan "Rus tili nutq madaniyati" darsligida ilmiy uslubning haqiqiy ilmiy, ilmiy-o'quv, ilmiy-informativ, ilmiy-ommabop, ilmiy-ma'lumotnomalari kabi turlarini beradi [3]. Ko'p jihatdan, bu taguslublarni ajratish mezonlarining noaniqligi bilan bog'liq. Ilmiy-ommabop matnning stilistik maqomi hozirgacha tilshunoslikda ilmiy munozaralar mavzusi bo'lib qolayotgani beziz emas. Ba'zi olimlar bu matnlarni ilmiy-ommabop uslublar deb hisoblashsa, boshqalari nutqning bu turini mustaqil amaliy uslub deb hisoblashadi. Shu bilan birga, ilmiy-ommabop taguslubni ajratib ko'rsatishning asosiy sababi an'anaviy ravishda ilmiy matnning professional bo'limgan shaxsga yo'naltirilganlidadir [4].

S. Sultonsaidova ilmiy uslubni ilmiy-texnikaviy, ilmiy-ommabop, ilmiy-o'quv, ilmiy-publitsistik va ilmiy-hujjat taguslublariga bo'ladi [5].

Ilmiy-ommabop matn - fan asoslari, fan, madaniyat va amaliyotdagi nazariy va eksperimental tadqiqotlar bo'yicha materiallarni o'z ichiga olgan, bilimlarni keng afkor ommaga tarqatish va mustaqil o'qib o'rganishgamo'ljallangan nutqning shaklidir.

Ilmiy-ommabop matnlarning maqsadi ilmiy faktlar va ma'lumotlarni, ya'ni, ilmiy bilimlarni keng o'quvchilar doirasi uchun ochiq shaklda, nafaqat ma'lumotni tushunarli taqdim etishni, balki ushbu taqdimotga qandaydir hissiyot va tasvirni berishni ham nazarda tutadi. Uslubning emotSIONALLIGI va obrazliligi matnni jonlantirishga, o'quvchini qiziqtirishga, uning e'tiborini muayyan faktlar va xulosalarga qaratishga yordam beradigan, shuningdek, muallifga o'z fikrini ifoda etishga imkon beradigan turli xil stilistik vositalar orqali o'quvchilarning qiziqlishi, diqqat-e'tibori va ishonchini qozonadi va shu munosabatda tushunish mumkinki, ilmiy-ommabop matn ilmiy uslub va badiiy uslub o'rtasida ma'lum bir bo'shliqni egallaydi, chunki kognitiv mazmun, aniqlik, ravshanlik va ilmiy faktlarni tavsiflashning va uni taqdim etishning ilmiy uslubi bilan umumiyligini bo'lib, badiiy adabiyotdagi hissiylikni, tasvirni, subyektiv baholashni, bayonni birlashtiradi. Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, obyektiv mazmun subyektiv usullar va ifoda vositalarida berilishi mumkin.

Ilmiy-ommabop matnning asosiy funksiyalaridan biri kommunikativlikdir, shuning uchun muallif matnni o‘quvchilar uchun tushunarli va qiziqarli tarzda yaratadi [6].

Ilmiy-ommabop matn turlari haqida so’z yuritadigan bolsak, deyarli barcha tadqiqotchilar tomonidan ilmiy-adabiy, ilmiy-badiiy, adabiy-ta’limiy va o‘quvbelletristik va boshqa bir nechta asosiy turlarga bo‘linadi. V. S. Allayarova, L. N. Kogan va Ye. S. Lixtenshteyn kabi tadqiqotchilar ilmiy-badiiy adabiyotlarga ilmiy-fantastik asarlarni kiritadilar.[7]

Ilmiy-ommabop matnlarni tarjima qilinish o‘lchovi har xil bo‘lishi mumkin. Turli xildagi ma’lumotlarni ifoda etuvchi vositalarning aralash holda qo‘llanishi bu badiiy tasvir vositalarining qarama-qarshiligiga olib kelishi mumkin. Bu vaziyatda estetik axborotni shakllantirishga xizmat qiladigan lingvistik vositalar alohida muammo tug‘diradi. Yana bir tez-tez uchraydigan holatlardan biri matnni kengayishiga olib keladigan tavsifiy tarjimadir. Ekzotizmlar, shaxs nomlari va bir nechta o‘girish murakkab bo‘lgan tarkibiy qismlardan tashqari matndagi barcha asosiy vositalarning to‘liq tarjimasiga erishish mumkin.

Ilmiy-ommabop matndagi kognitiv ma’lumotni shakllantirishning lisoniy vositalari bir ma’noli ekvivalentlar, variant mosliklari va sintaktik transformatsiyalar ko‘rinishidagi jumlalarni tarjima qilishda uchraydi. So‘zlashuv leksikasi, emotsiional baholovchi leksika, emotsiional inversiyalar, frazeologik birliklar va majoziy obrazlarni funksional jihatdan mos keladigan vositalar bilan, asosan, mos muqobillar bilan yoki ba’zan kompensatsiyalash usuli bilan tarjima qilinadi. Epitet, metafora, o‘xshatish va troplar ko‘proq bu vositalarning o‘ziga xosligini saqlash bilan emas, balki ularning matndagi funksional xususiyatlarini yetkazib berish bilan tarjima qilinadi.

Ilmiy-ommabop matn tarjimasining o‘ziga xosliklaridan biri xilma-xil funksional uslublar elementlarining aralash holda uchrashi tarjimonlar uchun tarjima strategiyasini tanlash va tarjimada qayta yaratish uslublarini tanlashga qiyinchilik tug‘diradi. Xuddi shu o‘ziga xoslik ilmiy-ommabop matndagi polisemantik so‘zlarning tarjimada berilishida ham ko‘rinadi. Ayniqsa, biz o‘z ishimiz uchun tadqidot materiali sifatida olgan ingliz tilidagi ilmiy-ommabop matnlar uchun bu muammo yanada aktuallik kasb etadi. Chunki ingliz tili lug‘atidagi so‘zlarning juda katta qismi polisemantikdir. Bu holatda tarjimondan quyidagi sifatlar talab etiladi:

- Tarjima qilinyapgan leksik birliklarning semantik tuzilishi haqida yetarlicha bilimga ega bo‘lish;
- Tarjima lug‘atlari tuzilishini yaxshi tushunish;
- So‘zni birlamchi, ko‘p qo‘llaniladigan muqobiliga yopishib olmaslik;
- Umumiylar tarjima malakasining yuqori bo‘lishi.

Shu o'rinda ilmiy-ommabop matnlarning eng muhim aspektlaridan bo'lgan terminlar tarjimasiga doir Jeyms Klerning "Atom odatlar" asarining Sarvinoz Qosimova tarjimasidan bir nechta misollarga e'tiborimizni qaratsak.

While I slipped into a coma, the hospital sent a priest and a social worker to comfort my parents [8].

Ruscha tarjimada:

После того как меня ввели в состояние комы, больница пригласила священника и социального работника, чтобы успокоить моих родителей [9]. O'zbekcha tarjimada: Komaga tushgan paytim shifoxona ma'muriyati ota-onamga tasallি berish uchun ruhoni va ijtimoiy xodim jo'natdi [10].

Bu misolda terminning eng ideal holatda, ya'ni ikkala tilga tarjimada ham to'liq mos ekvivalenti bilan o'girilganini ko'rishimiz mumkin. Chunki "koma" (yunoncha "koma" – qattiq, chuqur uyqu holati) [11] tibbiyat termini uchala tilda ham bir xil semantik kuchga ega. Lekin yuqorida aytib o'tilganidek tarjimada bunday holat ko'p uchramaydi. Yana bir shunga o'xshash misolga e'tibor qarataylik:

My parents were no strangers to this hospital. Ten years earlier, they had entered the same building on the ground floor after my sister was diagnosed with leukemia at age three [8].

Ruscha varianti: Родителям уже приходилось бывать в этой больнице. Десятью годами ранее они были в этом здании на первом этаже – тогда моей трехлетней сестре поставили диагноз "лейкемия" [9].

O'zbekchada: Shifoxona ota-onamga begona emas edi. O'n yilcha avval uch yoshli singlimda oqqon kasalligi aniqlanganda ham ular shu eshikdan kirgandi [10].

Mazkur parchadagi "leykemiya" tibbiyat termini haqida ham yuqoridagi fikrlarni aytish mumkin. Yunoncha leukos – oq + hauma – qon so'zlaridan tashkil topgan ushbu "leukemia" termini rus tiliga ingliz tilidan to'g'ridan-to'g'ri transkripsiya yo'li bilan o'zlashgan [11]. O'zbek tilida uning bir necha leykemiya, leykoz, oq qon kasalligi, oqqon va qon raki kabi muqobilari bor. Tarjimon shulardan "oqqon" muqobilidan foydalangan.

Xulosa. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ilmiy-ommabop matn tarjimasi badiiy tarjima mashaqqatidan hech ham kam emas bo'lib, undagi o'ziga xos tuzilish, leksik birliklar, qo'llangan stilistik figuralar tarjimondan alohida tayyorgarlik, malaka, tajriba va matnni pragmatik ma'nosini his qila olish kabi fazilatlarni talab etadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES):

- [1] – Кожина М. Н. Стилистика русского языка. М., 2008. 84 б.
- [2] – Розенталь Д.Э. Справочник по русскому языку, Практическая стилистика. М., 2001. 381 б.

- [3] – Граудина Л.К. Культура русской речи. М., 2001. – 195 б.
- [4] – Воронцова Т.А. Научно-популярный дискурс в современных российских СМИ (проблемы жанра и стиля). 2014. № 6(335). 38-42 б.
- [5] – Ўзбек тили стилистикаси С. Султонсаидова ва бошқ., Т. 2009. 20-б.
- [6] – Гришечкина Г.Ю. Некоторые особенности синтаксиса в научно-популярном тексте. 2009. №3. 103-109 б.
- [7] – James Clear. Atomic habits. AVERY an imprint of Penguin random house LLC. New York. 2018. Р. 7-8.
- [8] – Лихтенштейн Е.С., Михайлов А.И. Научно-популярная литература. Редактирование научной, технической литературы и информации. М., 1974. С. 62–67.
- [9] – Клир Джеймс. Атомные привычки. СПб.: Питер. 2020. С. 10.
- [10] – Жеймс Клир. Атом одатлар. Тошкент. NIHOL. 2022. 11-12-б.
- [11] – Ўзбек тилининг изоҳли луғати. “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат миллий нашриёти. Тошкент. 2-жилд. 392, 494-б.

